



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRINING  
BUYRUG'I**

2024 - yil «8» oktabr

366 -son

Toshkent shahri

**O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lism, fan va innovatsiyalar vazirligi  
tizimida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari faoliyatini yanada  
takomillashtirish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lism, fan va innovatsiyalar vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari vakant lavozimlariga nomzodlarni ishga qabul qilish (tayinlash) hamda xodimlarni lavozimidan ozod etish jarayonida shaffoflikni ta'minlash, talabgor fuqarolar va tizimda faoliyat yuritayotgan xodimlarning barchasiga teng imkoniyatlar yaratish hamda yuklatilgan vazifalarni samarali tashkil etish maqsadida

**BUYURAMAN:**

**1. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi (Parmanov), Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi (G'aybullayev), barcha davlat oliy ta'lism muassasalari:**

vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari xodimlari lavozimlariga nomzodlarni tayinlash O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lism, fan va innovatsiyalar vazirining 2023-yil 21-avgustdagи "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lism, fan va innovatsiyalar vazirligiga tanlov asosida ishga qabul qilish jarayonini yanada takomillashtirish to'g'risida" 372-sun buyrug'i bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lism, fan va innovatsiyalar vazirligi, hududiy boshqarmalar, tizim tashkilotlaridagi davlat fuqarolik xizmati lavozimini egallash uchun tanlov o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizom" talablari asosida amalga oshirilishi ta'minlansin;

bunda, korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari xodimlari lavozimlariga nomzodlarni tayinlash va ularni egallab turgan lavozimidan ozod etishda ilovada keltirilgan qo'shimcha talablarga qat'iy amal qilish nazarda tutilsin.

- Ushbu buyruq tasdiqlangan kundan e'tiboran kuchga kiradi.
- Mazkur buyruq ijrosi nazorati vazirning birinchi o'rinosi Sh. Daliyev zimmasiga yuklansin.

Vazir



K. Sharipov

**NUSXA  
ASLIGA TO'G'RI**



Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligining  
2024-yil 8-oktabrdagi 27-son buyrugiga  
ilova

## **O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari xodimlari lavozimlariga nomzodlarni tayinlash hamda xodimlarni lavozimidan ozod etish bo'yicha qo'shimcha talablar**

1. Mazkur Talablar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldag'i "Korruptsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-5177-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi direktorining 2021-yil 6-sentabrdagi "Korruptsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari faoliyati to'g'risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash to'g'risida" 27-son buyrug'i talablari (2021-yil 8-sentabrda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida davlat ro'yxatidan o'tgan, ro'yxat raqami 3319) va O'zbekiston Respublikasi Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligining "Korruptsiyaga qarshi ichki nazorat: 100 savolga 100 javob. Korruptsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari mas'ul xodimlari uchun amaliy qo'llanma"si tavsiyalari asosida ishlab chiqilgan.

2. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi (keyingi o'rnlarda – Vazirlik) tizimidagi davlat oliy ta'lif muassasalari korruptsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari (keyingi o'rnlarda – ichki nazorat tuzilmasi) xodimlari vakant lavozimlariga nomzodligini taqdim etgan talabgorlar davlat oliy ta'lif muassasasining vazifalari va asosiy faoliyat yo'nalishlari hamda xususiyatlaridan kelib chiqib, yurisprudensiya, iqtisodiyot va boshqa sohalar bo'yicha bakalavr ma'lumotiga, shuningdek ichki nazorat tuzilmasiga yuklatilgan vazifa va funksiyalar, muassasadagi korruptsiyaviy xavf-xatarlardan kelib chiqib, kamida 3 yillik stajga ega bo'lishlari zarur.

Bunda, sohaga oid muayyan tajribaga ega, shuningdek huquqni muhofaza qilish organlarida xizmat stabi hamda ijobiylar tavsiyanomaga ega fuqarolarning nomzodini tanlab olish tavsiya etiladi.

3. Ichki nazorat tuzilmasi vakant lavozimi – muassasaning belgilangan tartibda tasdiqlangan shtat birligida nazarda tutilgan egallanmagan lavozim hisoblanadi.

4. Ichki nazorat tuzilmasi vakant lavozimiga tanlov 3 va undan ortiq nomzodlar orasidan mutaxassisni meritokratiya, ochiqlik, muqobililik va tenglik tamoyillari asosida tanlab olish maqsadida o'tkaziladi.

5. Ichki nazorat tuzilmasi vakant lavozimiga nomzodni tayinlash tanlov asosida amalga oshiriladi va unda O'zbekiston Respublikasining barcha fuqarolari ishtirok etishlari mumkin.

Tanlov ta'lif muassasalarining "Oliy va professional ta'lif muassasalarida mayjud bo'sh ish o'rnlari uchun onlayn hujjat topshirish" (vacancy.edu.uz) platformasi orqali amalga oshiriladi.

6. Ichki nazorat tuzilmasi vakant lavozimlariga nomzodlarni tayinlash Vazirlik Korrupsiyaga qarshi kurashish hamda Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo‘limlari bilan kelishgan holda amalga oshiriladi.

Bunda, ichki nazorat tuzilmasi vakant lavozimlariga tayinlanishi uchun tanlab olingen nomzodlar ro‘yxati, ular bilan suhbat o‘tkazish uchun Vazirlik rahbariyatiga taqdim etiladi.

7. Suhbat Vazirlik Korrupsiyaga qarshi kurashish hamda Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo‘limlari tomonidan nomzodlarning malakaviy tajribasi mazkur Talablarning 2-bandida javob berishini aniqlash bo‘yicha o‘tkaziladi va natijasi bo‘yicha tavsiyaviy yozma javob rasmiylashtiriladi.

8. Suhbat davomida nomzodlarning quyidagi qonunchilik hamda normativ-huquqiy hujjatlar talablarini bilish darjasini o‘rganiladi:

a) O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi;

b) O‘zbekiston Respublikasining:

“Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”;

“Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”;

“Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”;

“Davlat xaridlari to‘g‘risida”;

“Normativ-huquqiy hujjatlarning va ular loyihamining korrupsiyaga qarshi ekspertizasi to‘g‘risida”gi Qonunlari hamda Kodekslari;

c) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining:

2021-yil 6-iyuldagagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-5177-son qarori;

2021-yil 6-iyuldagagi “Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo‘lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-6257-son Farmoni;

2022-yil 12-yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-81-son qarori;

2023-yil 27-noyabrdagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish hamda davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati tizimi samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-200-son Farmoni;

d) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-oktabrdagi “Davlat fuqarolik xizmatchilari tomonidan Odob-axloq qoidalariga rioya etilishini ta’minalash bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 595-son qarori;

e) O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi direktorining 2021-yil 6-sentabrdagi “Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari faoliyati to‘g‘risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash to‘g‘risida” 27-son buyrug‘i (2021-yil 8-sentabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida davlat ro‘yxatidan o‘tgan, ro‘yxat raqami 3319).

Shuningdek, nomzodning korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida yangi qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmonlari hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlar talablarini bilish darajasi o‘rganiladi.

9. Ichki nazorat tuzilmalari xodimlarini egallab turgan lavozimidan ozod etish Vazirlik Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi bilan yozma ravishda kelishilganidan so‘ng amalga oshirilishiga ruxsat beriladi.